



## MUSTAQILLIK DAVRI SHE'RIYATIDAGI BADIY SHAKL IZLANISHLARI: TARONA, QAYIRMA, QISQA SATRLAR

---

*Dilorom Tashova - f.f.f.d.(PhD),  
IIV Buxoro akademik litseyi o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Istiqlol davri o'zbek she'riyati o'zining qator xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Xususan, bu davrda ijodkorlar yangicha badiiy shakllarda ijod qilishdiki, buning asoslari xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotga borib taqaladi. Ushbu maqolada ham keyingi yillar o'zbek she'riyatida yaratilgan tarona (Jamol Kamol), to'rtqavatllilar, so'taruboiylar (Anvar Obidjon), chorzarb (Abdunabi Hamro) va qisqa satrlar (Sirojiddin Sayyid) kabi yangicha badiiy shakl izlanishlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** badiiy shakl, ruboiy, so'taruboiy, to'rtqavatllilar, to'rtlik, qisqa satrlar, tarona, chorzarb, individual izlanish, qayirma.

Istiqlol yillari she'riyati nazardan o'tkazilsa, to'rt satrdan iborat bir necha yangi badiiy shakllarda izlanishlar olib borilganligini kuzatish mumkin. Jumladan, tarona (J.Kamol), qayirma (A.Suyun), so'taruboiy, to'rtqavatllilar (A.Obidjon), qisqa satrlar (S.Sayyid), chorzarb (A.Hamro) singari nomlarda she'ning yaxshi namunalari yaratildi.

Mumtoz va zamonaviy janrlarda baravar ijod qilgan Jamol Kamol ijodining o'ziga xosligi, individualligini belgilab turadigan badiiy shakl taronadir. Shoir ijodi bilan maxsus shug'ullangan yosh olim D. Nazarova bu haqda yozadi: "...shoir taronalarini mazmun jihatidan ruboiy va shakl jihatidan to'rtlikning badiiy sintezi deyish mumkin"<sup>1</sup>. Ko'rinadiki, tarona ruboiy va to'rtlikning sintezi deya talqin etilgan. Bu fikrga qo'shilish mumkin. Binobarin, shoir tanlagan nom daf'atan ko'z oldimizga taronayi ruboiyni keltiradi. Biroq bu shakl tarona bo'lishi uchun to'rt misrasi ham o'zaro qofiyalangan, ruboiy vaznida yozilgan bo'lishi kerak. Shoir taronalari nazardan o'tkazilsa, ularda ruboiyga xos mazmun va mavzusiga ko'ra uyg'un, biroq bu janr vaznida yozilmagan. Ularda yurt madhi, odamiylik saboqlari ruhi yetakchilik qiladi. Tarona deyilishining yana bir sababi, undagi ravon qofiya tizimi, satrlardagi so'zlarning xalqonaligi, musiqiylikni yuzaga keltirishidir. Buni yana bir fikr asoslab turadi: "TARONA (fors.) – qo'shiq, ashula turi. O'tmishda

---

<sup>1</sup> Назарова Д. Жамол Камол шеърияти поэтикasi. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2021. – Б.93.



ruboiy shaklidagi she'rlar bilan ijro etiladigan qo'shiq va ashulalar tarona deb yuritilgan"<sup>2</sup>. Demak, shoir o'z ijod namunasini nomlashda shu fikr-qarashlarga tayangan:

*Buxoro, ey Buxoro, ey Buxoro,  
Vatan husni jahonga zeb-u oro.  
Buxoroni salomat saqla doim,  
Xudoyo, Rabbano, Parvardigoro*<sup>3</sup>.

O'zi tug'ilib o'sgan Vatanni madh etish har bir shoir ijodining kredosini tashkil etadi. Jamol Kamol ham Buxoro farzandi sifatida yurtiga bo'lgan qaynoq muhabbatini o'z yoniq satrlari orqali yo'llaydi. U Buxoroni jahonning zebi, orosi deya maqtaydi. Qadimiy va navqiron Buxoroni Yaratgandan salomat asrashini so'raydi. Zero, Vatan madhida bitilgan har bir so'z tarona bo'lib qalblarga kirib boradi.

Jamol Kamol "taronalar"ining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular shakliy jihatdan 11 bo'g'inli turkumda yozilgan.

*Malomat qildilar bizni, malomat,  
Malomatpeshalar bo'lsin salomat.  
Ko'ngil, o'ksinmagil, shukrona ayla,  
Bu ham Haq himmatidin bir alomat.* (246-b.)

Shoir yuqoridagi misralarda kishilar tomonidan malomat qilinganini aytar ekan, u taqdiran nolimaydi, aksincha, ularga omonlik tilaydi va ko'nglini shukronalik bilan tinchitib, bu ham Allohning bir sinovi, ne'mati ekanligiga ishora qiladi.

*Musulmonning so'zi – Allohu akbar,  
Yoniq ko'ngil ko'zi – Allohu akbar.  
Haqiqat qayda deb ovvora bo'lma,  
Haqiqatning o'zi – Allohu akbar.* (246-b.)

"Allohu akbar" uchta tasbehning oxirgisi, "Olloh buyuk" ma'nosini beradi. Shoir uni "musulmonning so'zi", "yoniq ko'ngil ko'zi", "haqiqatning o'zi" deya metaforizatsiya qiladi.

Jamol Kamol ijodiy individualligini tarona yangi badiiy shakli belgilab beradi. Bunda shoirning ham mumtoz, ham zamonaviy lirik janrlar ijodkori sifatidagi qiyofasi namoyon bo'lgan. Shu jihatdan taronani ruboiy va to'rtlikning uyg'un shakli deyish mumkin.

<sup>2</sup> <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/tarona/>

<sup>3</sup> Камол Ж. Яна кўнглимда ул ой. – Т.: Meriyus, 2010. – Б.246.(Кейинги мисоллар шу манбадан олинади ва бети қавс ичида кўрсатилади).



Azim Suyunning so‘nggi yillardagi ijodida badiiy shakl yo‘lidagi yangilanishlarni kuzatish mumkin. Adabiy jarayonning nozik kuzatuvchisi Q.Yo‘ldoshning fikricha: “She’riy shakl ustidagi izlanishlar natijasida u poetik ifodaning “Qayirma” deb atalmish qulay janrini kashf etdi”<sup>4</sup>. Shoirning “Ey do‘st yoxud Azimnoma” kitobidagi ijod namunalarini muallif “qayirmalar” deb nomlaydi. E’tiborli jihati esa Azim Suyun bu badiiy shaklning ham she’riy, ham nasriy namunalarini yaratgan. “Qayirma” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “qayriladigan, bukiladigan” deb izohlangan<sup>5</sup>. Bundan tashqari, “qayish”lik, ya’ni pishiqlik, puxtalik kabi ma’nolarni ham anglatadi. Shoir bitiklarida ham shu xususiyat kuzatiladi.

“Azim Suyunning qayirmalarini ko‘pdan buyon kuzatib kelaman. Bu qayirmalar Sharq mumtoz she’riyati ummonidan “suv ichayotgani”, ya’ni Umar Xayyom, Sa’diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur kabi ulug‘ donishmandlarimiz asarlaridagi donolik, teranlik, ixchamlik, lo‘ndalik kabi fazilatlarga eshligi, ayni paytda, eng qadimiy davrlarda tog‘- toshlarga o‘yib yozilgan bitiklardek aniqligi bilangina emas, balki shakldagi yangiligi bilan ham e’tiborga loyiqdir”<sup>6</sup>. Darhaqiqat, shoir qayirmalari nomlanishi va ular qatidagi poetik fikr zalvori ham badiiy shakl yangilanishini o‘zida ifoda etadi. Bu fikrlar pishiq, hayotiy va falsafiy mohiyat kasb etishi jihatidan aforizmlarga hamohanglik qiladi.

*Ey do‘st!*

*Desangki sirimni bilmasin ag‘yor,*

*Uni hatto do‘stga qilmagil oshkor.*

*Oqillar gapini qilmagan edim,*

*Juda ko‘p pushmonlik eshagin mindim*<sup>7</sup>.

Pand-nasihat ruhidagi ushbu misralar mazmunidan maqolga xos umumlashma ma’no ifodalanganligini kuzatish mumkin. Ya’ni inson hayotda hammaga ham ishonib sirini aytavermasligi lozimligi, donolar gapiga kirmasligi oxir-oqibat pushaymonlikka sabab bo‘lishi misralarga singdirilgan.

Diqqatga loyiq jihati shundaki, 4 misradan iborat deyarli har bir to‘rtlik boshida takrorlagan “Ey do‘st!” tarzidagi undalma she’rni 5 misrali she’rga aylantirgan. “Ey do‘st!” undalmasi shunchaki shakliy originallik maqsadida

<sup>4</sup> Йўлдош Қ. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: “Академнашр”, 2018. – Б.434.

<sup>5</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.212.

<sup>6</sup> Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б.3.

<sup>7</sup> Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б.144 (Keyingi misollar shu manbadan olinadi va qavs ichida beti ko‘rsatiladi).



qo‘llangan xitob emas, balki har bir she‘rda aks etgan tuyg‘uning zalvorini, fikrning salmog‘ini oshirishga yo‘naltirilgan poetik unsurdir”<sup>8</sup>. Binobarin, shoir ritorik murojaat orqali poetik fikr qaratilgan shaxsni aniqlaydi. O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ham “Ey do‘st!” undalmasiga to‘xtalar ekan, u turli o‘rinlarda turlicha ohang va ma‘no kasb etganligini, bu undalma to‘rtlikni ma‘no va shakl jihatidan yangilaganligini, shu bilan birga, Sharqda ming yillardan beri o‘zgartirib bo‘lmaydiganday tuyulgan to‘rtlikning yangicha ko‘rinishi ekanligini ta‘kidlab o‘tgan edi<sup>9</sup>. Haqiqatan, “Ey do‘st” murojaatiga shoir bir necha ma‘noni yuklaydi. Jumladan, u chin do‘st, dildosh, sirdosh sifatida ko‘rinadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub “Qisqa satrlar” sarlavhasi ostida berilgan she‘rlarni ham individual uslubiy izlanishlarning namunasi sifatida ko‘rsatish mumkin. Bu she‘rlar nomidan ko‘rinib turganidek, 4 ta qisqa satrlardan tashkil topgan:

*Men dardni hech kimdan  
Ko‘chirmadim, yo‘q,  
Yozganimdan ko‘ra  
O‘chirganim ko‘p*<sup>10</sup>.

Shoir yuqoridagi qisqa satrlari ijod mohiyati haqidadir. Bu misralar O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri E.Vohidovning to‘rtliknavis shoir T.Yo‘ldoshga bag‘ishlangan:

*She‘rning o‘zi to‘rt satr,  
To‘rt ajoyib zo‘r satr.  
Shoir odam o‘zini  
To‘rt satrla ko‘rsatur*<sup>11</sup>, –

degan misralariga hamohang jaranglaydi. Mazkur to‘rt satr ijod mohiyati, ijodkor o‘zligini aks ettiradi. S.Sayyid o‘ziga talabchan ijodkor. Bu bilan shoir o‘ziga nisbatan o‘ta talabchan bo‘lib, yozganlaridan ko‘ngli to‘lmaganiga ishora qiladi.

*Umr – bir sog‘inchdir,  
Umr – bir og‘riq.  
U tomoni zangor,  
Bu tomoni sorig‘. (313-b.)*

<sup>8</sup> Йўлдош Қ. Қайирма – ҳикмат ва бадиият уйғунлиги. Китобда: Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б.436.

<sup>9</sup> Оripov A. Qayirma – mustaqil janr. // Tafakkur. – Toshkent, 2003.

<sup>10</sup> Саййид С. Асарлар. I жилд. – Т.: Шарқ, 2018. – Б.313. (Keyingi misollar shu manbadan olinadi va qavs ichida beti ko‘rsatiladi).

<sup>11</sup> Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.40.



Kontrast usuli asosiga qurilgan yuqoridagi satrlarda shoir hayot, umr haqida falsafiy mushohada yuritadi. Inson hayoti faqat tep-tekis yo‘ldan iborat emas. Unda yorug‘ va qorong‘u kunlar bor. Shuning uchun ham shoir sog‘inch va og‘riqni, zangor va sorig‘ni qarama-qarshi qo‘yadi.

*Bulbulni qarg‘aga*

*Qo‘shib bo‘lmaydi,*

*Qarg‘a bo‘lgan joyda*

*Qo‘shiq bo‘lmaydi. (313-b.)*

Yuqoridagi misralarda “q” tovushi bilan boshlanadigan so‘zlar alliteratsiya san’ati uchun asos bo‘lgan. Bunda bulbul ramziy ma’noda yaxshilikni, qarg‘a esa yomonlikni ifodalab kelmoqda.

Ko‘rinadiki, S.Sayyid qisqa satrlari hayotiyliigi, muhtasarligi, kompozitsion butunligi, tugalligi bilan zamonaviy adabiyotdagi to‘rtliklar qatorini to‘ldiradi. Ularning o‘ziga xosligi shundaki, qisqa satrlarning har bir misrasida ikki yoki uch so‘z bo‘ladi. Ular orqali shoir hayot, undagi inson, yaxshilik, yomonlik haqida falsafiy xulosalar chiqaradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Назарова Д. Жамол Камол шеърини поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2021.
2. Камол Ж. Яна кўнглимда ул ой. – Т.: Meriyus, 2010.
3. Йўлдош Қ. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: “Академнашр”, 2018.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008.
5. Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Академнашр, 2018.
6. Йўлдош Қ. Қайирма – ҳикмат ва бадиият уйғунлиги. Китобда: Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Академнашр, 2018.
7. Oripov A. Qayirma – mustaqil janr. // Tafakkur. – Toshkent, 2003.
8. Саййид С. Асарлар. I жилд. – Т.: Sharq, 2018.
9. Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.40.
10. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/tarona/>